



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 7-iyun, № 113 (8736)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK YANADA KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti
Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan 6-iyun kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Ta'kidlash lozimki, Turkiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan. 1996-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Xalqlarimiz ko'p asrlik tarixi, tili, dini, qadriyatlar va mushtarak urf-odatlar bilan bir-biriga chambarchas bog'langan. Davlatlarimiz o'rtasida o'zaro ishonch asosidagi do'stona munosabatlar bugungi kunda izchil mustahkamlanib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Anqara shahriga rasmiy tashrif doirasida dastlab "Turkish Aerospace Industries Inc." kompaniyasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga kompaniya mahsulotlari namunalari, ishlab chiqarish jarayoni va xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy hamkorlik natijalari taqdimot qilindi.

1984-yilda tashkil etilgan kompaniya turg'un va aylanma qanotli havo texnikasi, uchuvchisiz uchish qurilmalari va sun'iy yo'ldoshlarni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va aerokosmik tizimlarni integratsiyalash sohasida Turkiyaning yetakchi texnologiya markazidir.

2023-yilda "Turkish Aerospace Industries Inc." dunyodagi eng yirik 100 ta mudofaa kompaniyalari ro'yxatiga kirdi. Korxonaning yillik daromadi 1,5 milliard dollarni tashkil etadi.

Kompaniyada 15 mingdan ziyod xodim, shu jumladan, 7 mingga yaqin muhandislar, 6,5 mingdan ortiq texniklar va boshqa ishchilar mehnat qiladi.

Tashrif davomida O'zbekiston Prezidentiga Turkiya mudofaa sanoatining keng turdagi qurol-yarog' va harbiy

texnikani ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan boshqa korxonalari faoliyati ham taqdimot qilindi.

Aviatsiya texnikasining namoyish parvozlarini ham o'tkazildi. Shundan so'ng Anqara shahridagi Prezident saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordii. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdog'an shohsupaga ko'tarildilar. O'zbekiston va Turkiya davlat madhiyalari yangradi. Ikki davlat yetakchilari faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip

Erdog'anning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Qurbon hayiti bilan bir-birlarini samimiy qutladilar.

Muzokaralar davomida O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish, ko'p qirrali hamkorlikni, avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Hozirgi ikki tomonlama hamkorlik yuksak sur'atda davom etayotgani, barcha darajalardagi aloqalar va almashinuvlar shiddati mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar ko'rsatkichlari ortib bormoqda, qo'shma loyihalar va

korxonalar, aviaqatnovlar soni ko'paymoqda. O'zaro madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Tashrif arafasida biznes forumi muvaffaqiyatli o'tkazilib, uning natijasida sanoat, "yashil" energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida yangi loyihalar katta portfeli shakllantirildi.

Hukumatlar oldiga tovar ayirboshlashni 5 milliard dollarga yetkazish, jumladan, Imtiyozli savdo bitimi doirasida mahsulot turlarini kengaytirish vazifasi qo'yildi. Istanbul shahrida O'zbekistonning savdo vakolatxonasini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish va raqamlashtirish sohaslarida

o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xavfsizlik va mudofaa, terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni yanada mustahkamlash va muvofiqlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Tomonlar faol madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirishga kelishib oldilar. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va sport sohaslarida hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ikki davlat fuqarolarining bordi-keldisi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI "XITOIY — QIRG'IZISTON — O'ZBEKISTON" TEMIR YO'LI QURILISHI TO'G'RSIDAGI BITIMNI IMZOLASH MAROSIMI ISHTIROKCHILARIGA MUHOJAAT YO'LLADI

6-iyun kuni Pekin shahrida "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbir ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi. Bitimning imzolash marosimi munosabati bilan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ham o'z murojaatlarini yo'lladi.

Davlatimiz rahbari ushbu muhim

infratuzilma loyihasi amalga oshirish boshlanayotgani keng mintaqamizda iqtisodiy va transport jihatidan bog'liqlikni kuchaytirishga qaratilgan tarixiy voqea ekanligini alohida ta'kidladi.

— Mazkur temir yo'li Xitoyni mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'liga aylanadi. Kelgusida

ushbu yo'li bizning mamlakatlarimizga istiqbolli Transaf'g'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, — dedi Prezident.

Loyihaning amalga oshirilishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy samara yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratilishi, o'zaro

savdo hajmi bir necha karra ortishi, sanoat kooperatsiyasi kengayishi, investitsiyaviy jozibadorlik o'sishi va eng muhimi — aholi turmush darajasi oshishida namoyon bo'ladi.

Bitimga muvofiq, "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li Qashg'ar — Torqat — Makmal — Jalolobod — Andijon yo'nalishi bo'yab o'tadi.

O'zA.

Vladimir PUTIN:

"O'ZBEKISTON UCHUN HAM, BIZ UCHUN HAM AFG'ONISTONDAGI BARQARORLIK JUDA MUHIM"

Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida an'anaviy Peterburg Xalqaro iqtisodiyot forumi bo'lib o'tmoqda. Ushbu nufuzli anjumanda dunyoning ko'plab davlatlaridan hamkasblarimiz — tajribali mediamutaxassislar, jurnalistlar ham ishtirok etmoqda.

Tadbir doirasida RF Prezidenti Vladimir Putin jahonning yetakchi axborot agentliklari rahbarlari bilan uchrashdi. Ochiq savol-javob, samimiy suhbat-munozara tarzidagi uchrashuvda mamlakatimizdan O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov ham qatnashdi.

Tadbirda Rossiyadan TASS, AQShdan "Associated Press", Buyuk Britaniyadan "Reuters", Germaniyadan "Deutsche Presse-Agentur — DPA", Xitoydan "Sinxua", Fransiyadan "France-Press" kabi jahonning yetakchi agentliklari, shuningdek, Yaponiya, Eron, Ispaniya, Italiya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Belarus, Qozog'iston, Ozarbayjonning yetakchi rasmiy axborot idoralari rahbarlari ham ishtirok etdi.

Kutilganidek, muloqot davomida muhim xalqaro voqea-hodisalar, ichki va tashqi siyosat atrofida konstruktiv suhbat, bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Jumladan, Rossiya — Ukraina ziddiyatiga kengroq o'rin berildi. Ya'ni ishtirokchilarning aksariyati ushbu muammo bilan bog'liq mulohazalarga aniqlik kiritib olish istagida bo'ldi. Shuningdek, V. Putin Isroil — Falastin mojarosi, AQShdagi bo'lajak Prezident saylovi, RFning Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Koreya yarim oroli kabi mintaqalar, shuningdek, Belarus, Eron, KXDR, Yaponiya bilan alohida munosabati yuzasidan berilgan savollarga ham javob berdi.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov Rossiya Prezidenti va hamkasblari diqqatini dunyodagi ayrim davlatlar va mintaqalararo nizolar o'ta kuchaygan murakkab bir davrda ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolayotgan Afg'oniston muammosiga qaratdi.

— Vladimir Vladimirovich, yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Toshkentda bo'lib o'tgan muzokaralar davomida dolzarb xalqaro masalalar bo'yicha fikr almashgan edingiz. O'zbekiston uchun qo'shni afg'on zaminidagi tinchlik va barqarorlik juda muhim ahamiyatga ega.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "XITOIY — QIRG'IZISTON — O'ZBEKISTON" TEMIR YO'LI QURILISHI BO'YICHA STRATEGIK LOYIHANI AMALGA OSHIRISH TO'G'RSIDAGI BITIMNI IMZOLASH MAROSIMI ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO'ZI

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!
Xonimlar va janoblar!

"Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolash marosimining barcha ishtirokchilarini samimiy qutlashdan mamnunman.

Bu mamlakatlarimiz o'rtasida qaror topgan an'anaviy yaqin va ko'p qirrali hamkorlik rivojidagi chinakam tarixiy voqeadir. Bugun biz birgalikda keng mintaqamizda iqtisodiy va transport aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan muhim amaliy qadamlarni qo'ymoqdamiz.

Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi, hurmatli Si Szinpin janoblariga "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Transkontinental transport va tranzit koridorining ajralmas qismi hisoblanuvchi ushbu muhim infratuzilma loyihasi ilgar surishda ko'rsatgan shaxsiy e'tibori va uni to'la qo'llab-quvvatlagani uchun

chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Yangi temir yo'li Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligimizni kengaytirib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishiga ishonaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

"Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li tarixiy Buyuk Ipak yo'li bo'yab o'tadi. Darhaqiqat, biz ko'p asrlar davomida savdo aloqalari va madaniy almashinuv rivojiga xizmat qilgan ushbu qadimiy yo'lni zamonaviy sharoitda qayta tiklayapmiz.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, mazkur temir yo'li Xitoyni mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'liga aylanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uning barpo etilishi ortib borayotgan yuk tashish hajmiga samarali xizmat ko'rsatish, ularni tashish vaqti va narxini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Mutaxassislarning qayd etishicha, yuk tashish yillik hajmi 15 million

tonnagacha yetishi mumkin, tovarlarni yakuniy iste'molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqaradi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit va logistika infratuzilmasi, omborxonalar va terminallar yaratiladi.

Loyihaning amalga oshirilishi oqibatida vujudga keladigan iqtisodiy ta'sirni barcha mamlakatlar his qiladi. Avvalo, yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratiladi, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko'lami, investitsion jozibadorlik o'sadi va asosiy natija — fuqarolarimizning turmush darajasi oshadi.

Kelgusida ushbu yo'li bizning mamlakatlarimizga istiqbolli Transaf'g'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, tranzit salohiyati va mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni sezilarli darajada oshiradi.

Qadrli do'stlar!

Shuni ta'kidlamochimanki, ushbu keng ko'lamli loyihani amalga oshirish uchun

O'zbekiston hududida barcha zarur infratuzilma yaratilgan.

Bundan tashqari, biz zamonaviy temir va avtomobil yo'llari milliy tarmog'ini kengaytirmoqdamiz, yuklarni qayta ishlash va tashish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqdamiz. Hamkorlarimizni yana bir bor ishonitirib aytmoqchimanki, O'zbekiston temir yo'li qurilishi, imzolananayotgan bitim va qabul qilingan "Yo'l xaritasi" bo'yicha izchil hamkorlikni davom ettirishga tayyor.

Aminmanki, uzoq muddatli umumiy manfaatlarimizga javob beradigan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li strategik loyihasi do'stlik va sheriklik munosabatlarimizni mustahkamlashga, mamlakatlarimiz, xalqlarimiz farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ushbu keng qamrovli loyihaning barcha ishtirokchilariga ulkan zafarlar tilayman. E'tiboringiz uchun rahmat.

OʻZBEKISTON VA TURKIYA OʻRTASIDAGI KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK YANADA KENGAYTIRILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Oʻzbekiston va Turkiya rahbarlari, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro kun tartibining dolzarb masalalarini, jumladan, Afgʻonistondagi vaziyatning rivojlanishini ham koʻrib chiqdilar.

Soʻng Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Erdogʻan raisligida Oʻzbekiston — Turkiya oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Davlatimiz rahbari Turkiya yetakchisi va xalqiga koʻrsatilyotgan mehmondoʻstlik va iliq qabul uchun minnatdorlik bildirib, bugungi yigʻilish muborak Qurbon hayiti arafasida va ikki davlat oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatilganining 32 yilligi nishonlanayotgan yilda oʻtkazilyotganini taʼkidladi.

— Strategik hamkorlik kengashining tashkil etilishi Oʻzbekiston — Turkiya munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi va sheriklikning barcha sohalarida yanada rivojlanishga kuchli surʼat bagʻishladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Siyosiy muloqot, parlamentlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlar jadal rivojlanmogda, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik faollashmogda.

Soʻnggi yillarda oʻzaro savdo hajmi 1,5 barobarga, qoʻshma korxonalar soni 2 barobarga, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga turk investitsiyalari hajmi 2,5 barobarga oshdi. Ikki davlatning yirik shaharlari oʻrtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmogda, Turkiyadan kelayotgan turistlar oqimi 3 barobarga koʻpaydi.

Bugun Oʻzbekistonda “Cengiz Holding”, “Aksa Energy”, “Salik Holding”, “Akay Insaat”, “Anadolu Group”, “Oʻzguven”, “Eczacibasi Holding” kabi yetakchi turk kompaniyalari tomonidan 100 dan ortiq loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda. Bu galgi tashrif doirasida 10 milliard dollarlik yangi investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va birgalikda uchinchi davlatlar bozorlariga chiqish muhimligi taʼkidlandi.

Shuningdek, imtiyozli savdo toʻgʻrisidagi bitim doirasida bojxona tariflarini pasaytirish zarurligi qayd etildi.

Qishloq va suv xoʻjaligi, sogʻliqni saqlashni raqamlashtirish va tibbiyot klasterlarini tashkil etish sohalarida Turkiyaning ilgʻor tajribasi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etishga talab borligiga eʼtibor qaratildi.

Hamkorlikning yana bir muhim yoʻnalishi ikki mamlakatning transport-logistika salohiyatini oshirish, shu jumladan, Oʻrta koridor imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir.

Oliy, professional va texnik taʼlim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, teatr festivallari, madaniyat haftaliklarini oʻtkazish, birgalikda tarixiy filmlar suratga olish va madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish sohalarida hamkorlikni kengaytirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Tomonlar hamkorlikning barcha yoʻnalishlarini chuqurlashtirishga qaratilgan deklaratsiya qabul qilinayotgani va ikki davlat rahbarlari boshchiligidagi Oʻzbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashi tashkil etilganini olqishladilar.

Yigʻilish yakunlari boʻyicha hukumatlarga qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish boʻyicha qoʻshma “Yoʻl xaritasi”ni tasdiqlash topshirildi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev Rejep Tayyip Erdogʻanni kengashning navbatdagi yigʻilishini oʻtkazish uchun Oʻzbekistonga tashrif buyurishga taklif qildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan raisligida Oʻzbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashining birinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston tomonidan tadbirda “Global Textile”, “ProCab”, “Agromir Group”, “ERIELL Group”, “Akfa Holding”, “Murad Buildings”,

“SAG”, “BMB Holding”, “Uzbekistan Hydrogen” kompaniyalari ishtirok etdi.

Turkiya tomonidan “Salik”, “Cengiz”, “Acibadem”, “Eczacibasi”, “Anadolu Group”, “Aksa Energy”, “Zorlu”, “Kalyon”, “Onur Group” kabi xolding kompaniyalari qatnashdi.

Tadbirkorlar bilan bunday formatdagi muloqot ilk bor oʻtkazilmogda. Oʻzbekiston va Turkiya Prezidentlari Ishbilarmonlar kengashining tuzilishi ikki tomonlama munosabatlar rivoji yangi bosqichga koʻtarilganining ramzi ekanini taʼkidladilar.

Yuzaga keladigan barcha masalalarni tezkor hal etish va kelgusidagi investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlarini ilgari surish maqsadida kengash yigʻilishlarini muntazam oʻtkazib turish zarurligi qayd etildi.

Oʻzbekiston rahbari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik izchil surʼatda rivojlanib borayotganidan mamnunligini bildirdi. Soʻnggi besh yilda turk sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobarga oshdi va 2 mingtaga yetdi, investitsiyalar hajmi ikki barobarga ortdi.

Kuni kecha oʻtgan biznes forumi va ishbilarmonlik tadbirlari natijasida qishloq xoʻjaligi, qurilish, energetika, sogʻliqni saqlash, geologiya, elektrotexnika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, zargarlik, toʻqimachilik va charm sanoati sohalarida koʻplab ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

Prezidentimiz energetika, qurilish, konchilik va oziq-ovqat sanoati sohalarida “Cengiz Energy”, “Aksa Energy”, “Salik Holding”, “Eczacibasi” va “Anadolu” kabi turk kompaniyalarining muvaffaqiyatli faoliyatini koʻrsatib oʻtdi.

Davlatimiz rahbari hamkorlikning istiqbolli yoʻnalishlarini belgilab, eng avvalo, investitsiyaviy sheriklik va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishni taklif etdi.

Oʻzbekiston — Turkiya sanoat klasterini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi. Ushbu sanoat zonasi ikki mamlakat oʻrtasida amaliy hamkorlikning lokomotiviga aylanadi.

Oʻzbekiston Prezidenti davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratdi. Shu asosda 3 milliard dollardan ziyod qoʻshma loyihalarni amalga oshirish rejalashtirigan.

Kengash uchrashuvida konchilik sanoatida hamkorlik qilish ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida qayd etildi. Turkiyaning yirik kon-geologiya kompaniyalari bilan foydali qazilmalarni oʻrganish va qazib olish boʻyicha amaliy ishlar boshlangan.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan, oʻz navbatida, Turkiya Oʻzbekiston bilan barcha sohada oʻzaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlashga intilishini bildirdi.

U ikki mamlakat ishbilarmonlari oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini taʼkidladi. Turkiya yetakchisi kengash ishtirokchilarini savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni mustahkamlash maqsadida konstruktiv muloqotga chaqirdi.

Fikr almashish davomida turk ishbilarmon doiralari vakillari Oʻzbekistonda olib borilyotgan ortga qaytmas islohotlar natijasida paydo boʻlgan imkoniyatlarni yuqori baholadilar, bu islohotlar Turkiya biznesining uzoq muddatli rejalarini amalga oshirish uchun mustahkam poydevor yaratayotganini taʼkidladilar.

Uchrashuvda Oʻzbekiston va Turkiyaning yetakchi kompaniyalari rahbarlari tomonidan ustuvor sohalarida hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan aniq takliflar bildirildi.

Davlat rahbarlari tadbirkorlarni birgalikda ishlashga tayyorligi uchun samimiy minnatdorlik bildirib, masʼul rahbarlarga ishbilarmonlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻyicha koʻrsatmalar berdilar.

Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi yakunida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan Keng qamrovli strategik sheriklikni

chuqurlashtirish toʻgʻrisida qoʻshma deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, ikki mamlakat rahbarlari huzurida koʻp qirrali sheriklikning koʻplab sohalarini qamrab olgan 19 ta hujjat imzolandi. Jumladan:

— Ilmii almashinuv va yuqori texnologiyalar sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;

— Hududiy rivojlanish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash toʻgʻrisida bitim;

— Standartlashtirish sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bitim;

— Oʻzbekistonning JSTga aʼzo boʻlishida texnik koʻmak koʻrsatish boʻyicha hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Kosmik fanlar, texnologiyalar va tadqiqotlar sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Qishloq xoʻjaligi taʼlimi sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Energetik rivojlanish sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Axborot sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Kadastr masalalari boʻyicha hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Turizm sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Oila instituti va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Boshqaruv kadrlarini tayyorlash sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma;

— Huquqiy sohada malaka oshirish boʻyicha hamkorlik toʻgʻrisida bayonoma.

Shuningdek, imtiyozli savdo, energetika bozorini tartibga solishga oid ikki tomonlama hujjatlar hamda Qishloq xoʻjaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilindi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi yakunlari boʻyicha Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdogʻan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Davlatimiz rahbari soʻzining avvalida turkiyalik hamkasbiga taklif va Strategik hamkorlik kengashi doirasidagi samarali muzokaralar uchun samimiy minnatdorlik izhor etdi.

Turkiya vaqt sinovidan oʻtgan ishonchli hamkor ekanini taʼkidladi.

Oʻzbekiston Prezidenti taʼkidlaganidek, Rejep Tayyip Erdogʻan boshchiligidagi Turkiyada xalq farovonligini oshirish, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratini mustahkamlash, shuningdek, xalqaro maydondagi nufuzi va taʼsirini oshirish boʻyicha katta ishlar qilinmogda. Hayratlanarli infratuzilma loyihalari amalga oshirilmogda.

— Biz chin qardosh va yaqin doʻst sifatida Turkiya xalqi erishayotgan bunday olamshumul yutuqlardan nafaqat quvonamiz, balki behad faxrlanamiz. Biz oldimizga qoʻygan niyatlarimiz va istaklarimiz bir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi oliy darajadagi uchrashuvlar tarixiy ahamiyatga ega ekan va ular natijasida Keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish toʻgʻrisida deklaratsiya imzolangani qayd etildi.

Yetakchilar oʻzaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlarini, istiqbolga yoʻnaltirilgan maqsadlarni belgilab oldilar. Jumladan, kengash yigʻilishlarini muntazam oʻtkazish, siyosiy muloqotni faollashtirish va Hukumatlararo komissiya mexanizmidan samarali foydalanishga qaror qilindi.

— Biz hamkorlikning ega, yanada mustahkam koʻpriklarini quryapmiz. Hech shubhasiz, Oʻzbekiston — Turkiya Strategik hamkorlik kengashi yigʻilishi hozirgi vaqtga aloqalarimiz tarixida yangi sahifa ochmogda. Bunday yuksak darajadagi muloqot formati oʻzaro ishonch va hurmatning oliy ifodasidir, — dedi Prezidentimiz.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy surʼati qayd etildi.

Tomonlar oʻzaro savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish, mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini

chuqurlashtirish, uchinchi mamlakatlar bozorlariga birgalikda chiqish, yangi “oʻsish nuqtalari” va maxsus sanoat klasterlarini yaratish boʻyicha tizimli ishlashga kelishib oldilar.

Energetika, togʻ-kon, elektrotexnika, toʻqimachilik, qurilish, qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati, sogʻliqni saqlash, turizm, taʼlim va madaniyat sohalarida hamkorlikni yangi bosqichga koʻtarish borasidagi intilishlar qatʼiy ekanini bildirdi.

Ikki mamlakat hukumatlariga logistika va tranzit imkoniyatlarini rivojlantirish, mavjud transport yoʻllaridan samarali foydalanish va biznes aloqalarini jadallashtirish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni belgilash topshirildi.

Mintaqaviy masalalar yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Xalqaro maydonda yaqin hamkorlik va oʻzaro qoʻllab-quvvatlashni, jumladan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorlikni davom ettirishga sodiqlik bildirildi.

Prezidentlar Gʻazo sektorida zoʻravonliklarni zudlik bilan toʻxtatish va Falastin — Isroil muammosini tinch yoʻl bilan hal qilish zarurligini yana bir bor taʼkidladilar.

— Barqaror va uzoq muddatli tinchlikka erishish uchun mustaqil va ozod Falastin davlati tashkil etilishi shart, — dedi davlatimiz rahbari.

Tomonlar islom dinining asli insonparvar mohiyatini keng targʻib qilish, islomofobiya va radikalizmga qarshi kurashishda, shuningdek, oʻzbek zaminida tugʻilib oʻsgan va musulmon dunyosida yuksak qadrlanadigan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abduxoliq Gʻijduvoniyy va Bahouddin Naqshband kabi buyuk alomlarning bebaho maʼnaviy merosidan samarali foydalanish masalalarida hamkorlik qilish borasida yakdli fikr bildirilar.

Muzokaralarda madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratildi. Xalqlarimiz oʻrtasidagi yaqinlikni mustahkamlash maqsadida oʻzaro madaniyat haftaliklari, taʼlim va tibbiyot forumlari, koʻrgazmalar oʻtkazish va turistlar oqimini oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Barcha erishilgan kelishuvlarni toʻliq va oʻz vaqtida amalga oshirish uchun alohida “Yoʻl xaritasi” ishlab chiqiladi.

Anqara shahriga tashrif doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni “Turkiya Respublikasi nishoni” bilan taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi.

Qardosh mamlakatning oliy davlat mukofotini Oʻzbekiston yetakchisiga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan tantanal ravishda topshirdi.

— Bugun, mamlakatlarimiz oʻrtasidagi Keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish toʻgʻrisidagi deklaratsiya imzolangan kunda Turkiya Respublikasining bunday yuksak mukofotini olish men uchun katta sharaftir. Ushbu mukofot xalqlarimiz oʻrtasidagi koʻp asrlik doʻstlik rishtalari, oliy darajadagi ishonchli muloqot hamda ikki tomonlama koʻp qirrali munosabatlarning jadal rivojlanishining ramzidir, — dedi davlatimiz rahbari.

Taʼkidlash joizki, Turkiya Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq mazkur oliy mukofot Turkiya bilan doʻstona munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan davlat arboblriga beriladi.

Anqaraga tashrif doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan va rafiqasi hamrohligida Turkiya xalq amaliy sanʼati va taomlari koʻrgazmasiga tashrif buyurdilar.

Oliy martabali mehmonlarga xalq ijodiy jamoalarining teatrlashtirilgan chiqishlari namoyish etildi. Madaniy almashinuvlar qardosh xalqlarimizni yaqinlashtirish va doʻstligini mustahkamlashda muhim oʻrin tutishi qayd etildi.

Tashrif tadbirlari yakunlanganidan soʻng “Esonbugʻa” xalqaro aeroportida Prezident Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Prezident Rejep Tayyip Erdogʻan va rafiqasi kuzatib qoʻydilar.

OʻZA.

Vladimir PUTIN:

“OʻZBEKISTON UCHUN HAM, BIZ UCHUN HAM AFGʻONISTONDAGI BARQARORLIK JUDA MUHIM”

←1 A f s u s k i , kuzatishimizcha

Ukrainada boʻlib oʻtayotgan voqealar global kun tartibidan afgʻon muammosini toʻliq siqib chiqargan. Vaholanki, Afgʻonistonning yangi rahbarlari bilan oʻzaro aloqalarni oʻrnatish, zahmatkash afgʻon xalqiga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda koʻmaklashish boʻyicha obyektiv zarurat mavjud. Bundan tashqari, biz Afgʻonistonning yangi hukumati, yaʼni Tolibon mamlakatda tinchlik oʻrnatish, barcha davlatlar bilan konstruktiv hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga qatʼiy intilyotganini koʻrishimiz mumkin. Mening savolim shu bilan bogʻliq.

Rossiya Federatsiyasi uchun Afgʻoniston bilan muloqotni saqlab qolish qanchalik muhim? Hozirgi paytda afgʻon yoʻnalishi Rossiya siyosatida muhim oʻrin egallaydimi? Va Sizning ushbu mamlakat atrofidagi jarayonlarga munosabatingiz qanday?

V. Putin: — Birinchidan, shuni tasdiqlamoqchiman ki, Oʻzbekistonga safarimiz nihoyatda salmoqli, samarali boʻldi. Ayrim hududlarimiz rahbarlari, hatto RF Hukumatining yangilangan rahbariyati tarkibi bilan ham bevosita muloqot qildi. Jarayon qiziqarli, nihoyatda foydali boʻldi. Bu — hatto men uchun kutilmagand hol.

Ikkinchidan, biz Ukraina muammosini muhokama qildik. Prezident Mirziyoyev, albatta, ushbu ziddiyatni

tinch yoʻl bilan hal qilishni yoqlab chiqqan, bir necha bor Oʻzbekiston Ukrainadagi voqealardan tashvishda ekanini taʼkidlagan. Ayni paytda biz Prezidentdan bu borada mamlakatingiz siyosati yaqqol betaraf xususiyatga ega ekanini va puxta oʻylangani uchun minnatdormiz.

Afgʻonistonga kelsak, biz bu haqda ham koʻp gaplashganmiz. Oʻzbekiston duch kelayotgan muammo — dunyo okeaniga, dengizlarga chiqish ekanini tushunarli. Bu borada turli variantlar mavjud. Masalan, Afgʻoniston hududi orqali quvvurli transport, temir yoʻl va avtomobil transporti, energiya tashuvchi vositalar, elektr energiyasi kabi logistikaning turli shakllarini rivojlantirish.

Tabiiyki, shu sababli Oʻzbekiston uchun ham, biz uchun ham Afgʻonistondagi barqarorlik juda muhim. Va biz har doim voqelikdan kelib chiqish tarafdorimiz: toliblar Afgʻonistondagi hokimiyatni nazorat qilmoqda va albatta, Birlashgan Millatlar Tashkiloti darajasidagi barcha kelishuvlar bajarilishi, jumladan, Afgʻonistonning barcha etnik guruhlari ishtirokida hokimiyat inklyuziv boʻlishiga erishish kerak. Bu nozik va oʻta muhim masala. Tolibon hukumati bilan aloqa oʻrnatish lozim. Umuman olganda, aloqalarimiz bor. Afgʻoniston ham buni rivojlantirayotgani maʼlum. Biz bundan keyin ham ilgariab boramiz, qoʻshni mamlakat bilan munosabatlarni yoʻlga qoʻyish kerak, axir. Oʻzbekistonning bu mamlakat bilan chegarasi ancha uzun. Demak, xavfsizlikni taʼminlash zarur. Va takrorlayman, logistikani rivojlantirish kerak. Bu boradagi ishlarni, albatta, davom ettiramiz, ushbu imkoniyatlarni oʻrganib chiqamiz, deb kelishdik.

Peterburg Xalqaro iqtisodiyot forumi davom etmoqda.

OʻZA.

Muloqot

Izchil hamkorlik va mushtarak maqsadlar

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Malayziya parlamenti Senati Raisining oʻrinbosari Nur Jazlan Mohamad boshchiligidagi delegatsiya aʼzolari bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida taʼkidlaganidek, Oʻzbekiston va Malayziyani tarixiy rishtalar, madaniy va maʼnaviy qadriyatlarining yaqinligi bogʻlab turadi. Oʻzaro aloqalar soʻnggi yillarda davlat rahbarlarining yuksak siyosiy irodasi bilan sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarildi. Xususan, ikki davlat oʻrtasida savdo hajmi kengaymogda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari hamda ziyorat turizmi sohasida dasturlar amalga oshirilmogda.

Uchrashuvda rivojlanish va modernizatsiyaga qaratilgan “Oʻzbekiston — 2030” hamda “Malayziya Madani” strategik dasturlarining maqsad va vazifalari oʻxshash ekanini taʼkidlandi. Delegatsiya aʼzolariga strategiya doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar hamda Qonunchilik palatasi faoliyati, norma ijodkorligi, siyosiy partiyalar fraksiyalari va qoʻmita ish uslublari hamda parlamentarizm sohasidagi yangiliklar haqida soʻzlab berildi.

Shuningdek, keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgani, siyosiy va iqtisodiy sohadagi muloqotlarning faollashgani ijobiy baholandi.

Muloqotda parlamentlaro hamkorlikni kengaytirish, uni yangi bosqichga olish chiqish, madaniy-gumanitar aloqalar, jumladan, taʼlim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Oʻz navbatida, Malayziya parlamenti Senati Raisining oʻrinbosari samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ikki tomonlama aloqalarini rivojlantirishda muhim omil boʻlgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, ushbu yoʻnalishdagi muloqotlarni koʻpaytirish har tomonlama foydali ekanini qayd etdi.

Samimiy va konstruktiv ruhda oʻtgan uchrashuvda tomonlar parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga kelishib oldi.

“Xalq soʻzi”.

IKKI DAVLAT RAHBARLARI DOʻSTONA MUNOSABATLARNING MUSTAHKAM POYDEVORINI YARATDILAR

Xorijiy ekspertlar Anqara shahrida boʻlib oʻtgan oliy darajadagi Oʻzbekiston — Turkiya sammiti haqida

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga rasmiy tashrifi boʻlib oʻtdi. Anqarada oʻtkazilgan oliy darajadagi muzokaralar, Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi, shuningdek, ikki davlat rahbarlarining ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuvi barcha sohada ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirishdan tomonlarning yuqori manfaatdorligini namoyon etdi.

Xorijiy ekspertlarning aytishicha, tarixiy, madaniy va maʼnaviy rishtalari mushtarak boʻlgan Oʻzbekiston va Turkiya ikki mamlakat taraqqiyoti hamda qardosh xalqlar farovonligi yoʻlidagi muhim hamkorlardir.

Dunyo nigohi

Jan-Antuan DYUPRA, Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti:

— Tashrif ikki tomonlama oʻzbek — turk munosabatlari va davlat rahbarlari oʻrtasida mustahkamlangan ishonchli aloqalar izchil rivojlanib borayotganining yaqqol tasdiqiʼdir. Ushbu tashrif va uning doirasida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yigʻilishi boʻlib oʻtgan, unda ikki davlat oʻrtasidagi sheriklikni

yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama etilgani bilan eʼtiborlidir.

Shuningdek, rasmiy tashrif davomida ikki davlat rahbarlari raisligida Oʻzbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashi tashkil etildi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlik keyingi yillarda juda faol rivojlanmogda. Oʻtgan yillar davomida Turkiya Oʻzbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri boʻlib, Rossiya, Xitoy va Qozogʻistondan keyin 4-oʻrinni egalladi.

Oʻzbekistonda ikki mingga yaqin Oʻzbekiston — Turkiya qoʻshma korxonalari mavjud. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar,

xususan, toʻqimachilik mahsulotlari mintaqa va jahon bozorida xaridorgir.

Aytish mumkinki, Oʻzbekiston Prezidentining Turkiyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama sheriklik munosabatlarni kengaytirishda yangi istiqbollarni ochib beradi. Shuningdek, ikki qardosh davlat va xalqlar oʻrtasidagi koʻp qirrali strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zehra ZAIDI, Buyuk Britaniya Xalqaro taraqqiyot institutining ilmiy xodimi, global boshqaruv va geosiyosiy risklar boʻyicha tahlilchi:

Oʻzbekistonning Turkiya bilan ikki tomonlama munosabatlari sifatli rivojlanish, strategik sheriklikning yangi modelini jadal qurish va oʻzaro manfaatli hamkorlik uchun yangi “oʻsish nuqtalari” paydo boʻlishini namoyish etib, yangi bosqichga koʻtarilmogda.



Hamjihatlik platformasi takomillashtiriladi

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi tomonidan Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) va BMT Taraqqiyot dasturining Oʻzbekistondagi doimiy vakolatxonasi hamkorligida "Inson huquqlari va erkinliklarining taʼminlanishida davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligi" mavzuida davra suhbatlari oʻtkazildi.

Davra suhbatlari

Unda BMT Taraqqiyot dasturining Oʻzbekistondagi doimiy vakili, Oliy Sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar, Adliya, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Inson huquqlari boʻyicha Milliy markaz, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, Yoshlar parlamenti hamda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, shuningdek, OAV xodimlari ishtirok etdi.

Davra suhbatlari davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasida yoʻlga qoʻyilgan umumiy muloqot platformasini takomillashtirish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda inson huquqlarini himoya qilish sohasida davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, yuzaga

kelayotgan muammolar va ularni hal etish boʻyicha taklif va fikr-mulohazalar ilgari surildi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati va Ombudsmanning davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati vakillari oʻrtasida ochiq muloqotni yoʻlga qoʻyish tashabbusi aholini tashvishga solayotgan masalalarni vakolatli organlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan bevosita muhokama qilish imkoniyatini yaratayotganligi alohida urgʻulandi.

Davra suhbatida ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uy-joyga kiritib qoʻyish, tuhmat bilan bogʻliq ishlarni sudlarda koʻrish amaliyoti yuzasidan qator NNTning tahliiliy maʼruzalari taqdimoti boʻlib oʻtdi. Ayni chogʻda, sud jarayonlarida fuqarolar

sifatli yuridik yordamga muhtojligi hamda ularning huquqiy bilimlarini oshirish bilan bogʻliq fikr-mulohazalar ham oʻrtaga tashlandi.

Konstruktiv muloqot davomida inson huquqlarini taʼminlash va qiynoqlarning oldini olish borasida Ombudsman bilan fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasida samarali hamkorlik oʻrnatilgani va bu oʻzining ijobiy natijasini berayotgani ham eʼtirof etildi.

Taʼkidlandiki, bunday muloqot inson huquq va erkinliklarini taʼminlash borasidagi mavjud kamchiliklarni davlat organlari vakolatli vakillariga yetkazish va bu orqali tegishli sohalarining isloh etilishiga xizmat qilishi bilan eʼtiborga molikdir.

Tadbir yakunida ishtirokchilar tomonidan inson huquqlarini har tomonlama himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini ochiqlicigini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan oʻzaro hamkorligi samaradorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini yanada kengaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

“Xalq soʻzi”.

Senatorimiz TurkPAning ayol aʼzolari guruhi yigʻilishida qatnashdi

Ozərbaycan Respublikasının Boku şəhərində “Ayollar — TurkPAga aʼzo davlatlar iqtisodiyotining asosi, tadbirkorlikning harakatlaniruvchi kuchi” mavzuida Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi parlament ayol aʼzolari guruhining uchinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Uchrashuv

Unda Turkiya, Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Oʻzbekiston, Vengriya, Shimoliy Kipr Respublikalari parlament ayol aʼzolari ishtirok etdi.

Yigʻilishda turkiy davlatlar xotin-qizlarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi ishtirokini kengaytirish borasidagi ishlar xususida soʻz bordi.

Oʻz navbatida, Oʻzbekiston delegatsiyasi tarkibida ishtirok etgan Oliy Majlis Senati aʼzosi Gulnora Maʼrufova mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilayotganiga toʻxtalib oʻtdi.

Jumladan, soʻnggi besh yil ichida yurtimizda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, oʻz biznesini yoʻlga qoʻygan tadbirkor xotin-qizlar

200 mingdan oshgani, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlaridagi ulush 46 foizni tashkil qilayotgani, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida boʻlgan opa-singillarimiz davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgani qayd etildi. Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquq va erkinliklarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilik islohotlari, xususan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka koʻrsatiladigan nomzod ayollar sonining eng kam miqdori nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foizga oshirilgani borasidagi oʻzgarishlar eʼtirof etildi.

Yigʻilish yakunida Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi parlament ayol aʼzolari guruhining qarori va tavsiyalari qabul qilindi. Shuningdek, guruhning keyingi yigʻilishini 2025-yilda Qozogʻistonda oʻtkazishga kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

Qonunchilik palatasi qoʻmitalarida

KAMCHILIKLAR TANQID OSTIGA OLINDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi tomonidan oʻtkazilgan yigʻilishda Suv xoʻjaligi vazirligining axboroti eshitildi. Unda Fargʻona viloyatining Sirdaryo — Soʻx hamda Namangan viloyatining Norin — Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida olib borilgan ishlar toʻgʻrisida maʼlumot berildi.



etilayotganini taʼkidlashdi.

Shu bilan birga, tizimda 2022-2023-yillarda oʻtkazilgan tekshiruvlar natijasiga koʻra, 1764 ta qonunbuzilish holatiga yoʻl qoʻyilgan boʻlib, 371 nafar masʼul shaxsga intizomiy, 695 nafariga maʼmuriy jazo choralarlari qoʻllanilib, qoʻpol qonunbuzilish holatlari yuzasidan 121 ta jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan.

Eshituvda vazirlik tizimidagi tashkilotlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan aloqalar talab darajasida yoʻlga qoʻyilmagani, Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengash topshiriqlari ijrosidagi kamchiliklar tanqid ostiga olindi.

Shuningdek, ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi menejment tizimi xalqaro standart talablari asosida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (“komplayens-nazorat”) tizimini joriy etishga oid 10 ta ichki idoraviy hujjat qabul qilindi.

Deputatlar sohada amalga oshirilgan ishlarni eʼtirof etib, korrupsiyaviy jinoyatlar, asosan, rasmiy hujjatlar qasdidan soxta maʼlumotlar kiritish orqali davlat mablagʻlarini talon-toroj qilish, berilgan imtiyozlardan noqonuniy foydalanish, oʻz mansab vakolatidan foydalangan holda firibgarlik qilish va pora olish kabi yoʻnalishlarda sodir

Dilmurod ISMOILOV, Qonunchilik palatasi deputati:

— Muhokama jarayonida ayrim amaldorlar deputatlarning eʼtiroziga sabab boʻldi. Vazirlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi (komplayens-nazorat) xizmatga yetarli eʼtibor qaratilmagani, davlat xaridlarini tashkil qilishda qonunda belgilangan tartiblarga rioya etilmagani, manfaatlar toʻqnashuviga barham berilmagani shular jumlasidan boʻlib, bu boʻyicha zarur tavsiyalar ilgari surildi.

EKOLOGIK TANLOV GʻOLIBLARI TAQDIRLANDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi hamkorligida 5-iyun — Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni munosabati bilan “Ona tabiatni asraylik” mavzuida maʼnaviy-maʼrifiy tadbir oʻtkazildi.

Unda dastlab mazkur sananing ahamiyati, mamlakatimizda ushbu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan ishlarining natijadorligi va samaralari haqida maʼlumotlar berildi.

Shundan soʻng ishtirokchilar bugungi kunda iqlimning keskin oʻzgarishi, choʻllanish, chiqindilarning tobora ortib borishi, atmosfera havosining zararlaniishi, suv resurslari manbalarining ifloslanishi va tanqisligi, oʻrmonlar va bioxilmaxillikning qisqarishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolarga aylanib borayotganini taʼkidladilar. Shu bilan Prezidentimiz tashabbusi bilan Oʻzbekiston Respublikasida “yashil” isteʼmol madaniyatini shakllantirish maqsadida “yashil” iqtisodiyotga oʻtishda yoshlar ishtiroki boʻyicha maxsus dastur ishlab chiqilayotgani aytili.

Ushbu dastur tabiat va shaxs munosabatlari insonning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hissin shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

Dunyo miqyosida atmosfera havosiga chiqarilayotgan tashlamlar miqdori bugungi surʼatda davom etadigan boʻlsa, global isish va iqlim oʻzgarishlari natijasi bashorat qilib boʻlmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkinligi tadbirida soʻzga chiqqanlar tomonidan yoshlarga tushuntirildi.

Maʼrifiy tadbir davomida atrof-muhitni muhofaza qilishga doir turli interfaol mashgʻulotlar, xususan, “Zakovat” savol-javob oʻyini, “Mening bogʻim” hamda “Yashil yurtim” nomli fotosuratlar va rasm chizish tanlovlari ham oʻtkazildi.

Yakunda gʻolib va sovrindorlar turli esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandi.

Mohira XOʻJAYEVA, Qonunchilik palatasi deputati:

— Dunyoda roʻy berayotgan iqlim oʻzgarishi, atmosferaning ifloslanishi singari oʻnlab ekologik muammolarning yuzaga kelishi bizdan tabiatdan oqilona foydalanish va unga yetarlicha munosabatda boʻlishni talab qilmoqda. Shunday ekan, har birimiz ona tabiatga mehr-muhabbatli boʻlib, oilalarda, mahalla va qishloqlarda ekologik tarbiyani kuchaytirishga asosiy bel bogʻlaylik. Faqat shundaygina oʻz oldimizga qoʻygan asosiy maqsad — iqlimni moʻʼtadil saqlagan, xalqimiz farovonligini taʼminlagan boʻlamiz.

“Xalq soʻzi”.

INSON RUHIY SALOMATLIGINI TAʼMINLASH VA XALQARO TAJRIBA

Tahsilarga koʻra oxirgi yillarda inson salomatligi, uning ruhiy holati dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu kabi muammolar barcha yoshdagi insonlarga va ijtimoiy guruhlariga taalluqli boʻlib, ruhiy salomatlik nafaqat bir inson, balki jamiyat farovonligining ham muhim shartlaridan hisoblanadi. Negaki, ruhiy salomatligida muammo boʻlgan shaxslarda ishonchsizlik, siqilish, yoshlar oʻrtasida depressiv va tashvishli kasalliklar ortmoqdadi, bu esa har qanday jamiyat uchun yetarlicha tashvish tugʻdiradi. Shuningdek, oilalardagi notinchlik ham farzandlarning salomatligiga oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaydi. Barcha mintoqada, jumladan, Yevropa davlatlarida ham bu holat oʻsib borishi munosabati bilan Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti tomonidan maxsus koalitsiya yoʻlga qoʻyildi.

Mushohada

Koalitsiyaning asosiy vazifalari sifatida ruhiy nosogʻlom insonlarga qilinadigan xizmatlarni oʻzgartirish, ular ruhiy salomatligini tiklash va mustahkamlash, ruhiy salomatlikka doir muammolarning oldini olish, davlatlararo tajriba, bilim va koʻnikmalarni almashish, fundamental va amaliy tadqiqotlarni ragʻbatlantirish, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy va jamoat yordami hamda birlamchi tibbiy yordam oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikka eʼtibor berish, milliy siyosat va rejalariga ruhiy salomatlikning asosiy jihatlarni singdirish uchun ruhiy salomatlik va psixo-ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha milliy siyosat muloqotlarini oʻtkazishga koʻmaklashishni keltirish mumkin.

Bu borada yurtimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boʻyicha ixtisoslashtirilgan psixiatriya va narkologiya yordami koʻrsatish yagona vertikal boshqaruv tizimi joriy etilyapti. Birlamchi boʻgʻin tibbiyot muassasalariga ruhiy salomatlikni muhofaza qilish xizmatini integratsiyalash, ruhiy

holati buzilgan shaxslarni dori vositalari bilan ehtiyojga koʻra toʻliq taʼminlash, aholi, ayniqsa, bolalar va oʻsmirlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mutaxassislarni munosib ragʻbatlantirish va samarali mehnati uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratish hamda psixiatriya muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada kuchaytirish choralarini ham koʻrilayotir. Bunda Prezidentimizning 2023-yil 19-iyundagi “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori dasturlamal boʻlib xizmat qilmoqda. Shu oʻrinda joriy yilning 22-23-may kunlari Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti Bryusselda (Belgiya) Umumevropa ruhiy salomatlik koalitsiyasi doirasida seminar oʻtkazganligini ham aytib oʻtish joiz. Negaki, unda ruhiy salomatlik xizmatlarida barqaror oʻzgarishlarga erishish, ularning barcha bosqichi yanada qulay, inkluziv boʻlishiga koʻmaklashish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Muhimi, seminar munosabati bilan koʻplab davlatlar delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar

vakillari va Yevropa Ittifoqining implemental qoʻshma harakati bilan bogʻliq ruhiy salomatlik holati boʻyicha katta tajribaga ega boʻlgan mutaxassislari bir joyga jamlandi.

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari ruhiy salomatlik boʻyicha milliy texnik koordinator sifatida qatnashdi.

Ishtirokchilarga Oʻzbekistonda ushbu jahhada olib borilayotgan ishlar haqida batafsil maʼlumot berildi hamda bu boradagi ijobiy amaliyot keng tahlil qilindi. Ayni chogʻda ruhiy salomatlikni taʼminlash hamda bu boʻyicha holatni yaxshilash yuzasidan bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasi oʻrganildi va ularni jamiyatimizga moslashtirish masalasi koʻrib chiqildi.

Xalqaro anjumaning birinchi kunida uchta sessiyada ish olib borildi. Dastlab stigma va kamsitilishlarga qarshi kurash masalasida suhbat tashkil etilib, unda Fransiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Qozogʻistondan mutaxassislar qatnashdi. Ular tomonidan stigma va diskriminatsiyaga qarshi kurashish boʻyicha chora-tadbirlar va ularni davom ettirish yuzasidan dolzarb maʼruzalar qilindi.

Ikkinchi sessiyada jamiyatda ruhiy salomatlik boʻyicha yetakchilikni mustahkamlash masalasi muhokama markazida boʻldi. Unda ruhiy salomatlik borasida tarmoqlararo hamkorlikning eng ustuvor yoʻnalishlari belgilanib, ishtirokchi davlatlarning parlamentlari darajasida siyosiy muhokamalar oʻtkazish yuzasidan bayonotlar berildi. Oʻzbekiston delegatsiyasi

esa ruhiy salomatlik muammolarini ommaiy axborot vositalarida yoritish boʻyicha muhokamalarni boshlab berganligini ham taʼkidlab oʻtish zarur.

Uchinchi sessiyada Yevropa Ittifoqi implemental qoʻshma harakatining eng yaxshi amaliyotlari muhokamasiga bagʻishlangan suhbat oʻtkazildi. Unda koʻplab mamlakatlar vakillarining onlayn va offlayn hisoboti tinglandi. Muhokama davomida ruhiy salomatlik sohasida ilgʻor tajribalarni joriy etish masalasida ishtirokchi davlatlarning maʼruzalari tinglandi hamda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda JST tavsiyalarini moslashtirishning turli jihatlari koʻrib chiqildi.

Ikkinchi kundagi sessiyada Oʻzbekiston delegatsiyasi ham maʼruza bilan qatnashdi. Unda Oʻzbekistonda ruhiy salomatlikni mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan islohotlar, Prezident Farmon va qarorlarining ijrosi, oʻtkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilib berildi. Qolaversa, maktab oʻquvchilarining salomatligini mustahkamlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda bolalar va oʻsmirlar farovonligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida batafsil toʻxtalib oʻtdi.

Seminar doirasida bildirilgan takliflar, almashilgan bilim va oʻzaro tajriba bu borada oliy borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimizda qoʻl keladi. Shu jihatdan, mazkur tadbir barcha ishtirokchi uchun birdek manfaatli boʻldi, deyish mumkin.

Diloram TOSHMUHAMEDOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

Iqtisodiyot rivojiga keng yoʻl ochiladi

Jahon savdo tashkiloti — xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shugʻullanadigan hukumatlararo tuzilma sanaladi. U 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim — GATTning davomchisi.

Munosabat

Bugungi kunda dunyodagi eng yirik hisoblagan xalqaro iqtisodiy tashkilotga 164 davlat aʼzo va jahon yashil ichki mahsulotining 95 foizi ushbu mamlakatlari hissasiga toʻgʻri keladi.

JSTga aʼzo boʻlish mamlakat iqtisodiyotining salohiyatini yanada oshirish, Oʻzbekistonning global ishlab chiqarish va qoʻshimcha qiymat zanjirida muhim boʻgʻinga aylanish imkonini beradi. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasidan ham Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga toʻlaqonli aʼzo boʻlish masalasi eng muhim maqsadlardan biri sifatida oʻrin olgan.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish uchun arizani 1994-yilda bergan boʻlsa-da, 2005-yildan keyin aʼzolik jarayoni toʻxtab qolgan. Oradan 15 yil oʻtib, 2020-yildan

buyon Oʻzbekiston JSTga aʼzolik jarayonini boshlab, bu masala davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Qayd etish joizki, qisqa vaqt davomida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uygʻunlashtirish maqsadida 2023-2024-yillar davomida 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, 40 ga yaqin hujjatlarni uygʻunlashtirishga erishildi. JSTga qoʻshilish boʻyicha ishchi guruhlar uchrashuvlarining faollashgani natijasida bugungi kunda 30 dan ortiq davlatlar bilan ikki tomonlama faol muzokaralarni olib borayotgan boʻlsak, shundan 11 ta mamlakat bilan bozorga kirish boʻyicha hamma shartlar kelishib olingan.

Bu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ham faol ishtirok etayotganini

alohida taʼkidlash kerak. Bu bejiz emas. Chunki JSTga aʼzo boʻlishning asosiy tashkilotidan biri, bu — avvalo, milliy qonunchilikni JST qoida, meʼyor va standartlariga uygʻun boʻlishi. Aynan shuning uchun ham quyi palataga kiritilgan barcha qonunlar Jahon savdo tashkiloti qoida va meʼyorlariga muvofiq boʻlishini taʼminlash maqsadida ekspertizadan oʻtkazish amaliyoti joriy etilgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil 3-iyundagi “Bozor islohotlarini yanada rivojlantirish va Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish boʻyicha navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishda oʻz vaqtida qabul qilingani bilan ahamiyatli boʻldi, desak, aslo yangilishmaymiz.

Binobarin, ushbu hujjat Oʻzbekistonning JSTga qoʻshilish maqsadida jiddiy amaliy qadamlar tashlayotganidan dalolat

beradi. Xususan, bosqichma-bosqich “Oʻzmetkombinat” AJ, “Oʻzikkilamchiranglimetall” AJ, “Oʻzkimyoimpeks” MCHJ, “UzGasTrade” AJ kabi korxonalar uchun maxsus (eksklyuziv) huquqlar bekor qilinishi, eng avvalo, monopoliyaga barham berilishi va davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvini minimallashtirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, Farmon bilan Hukumat tomonidan imzolangan barcha investitsiya bitimlari xatlovini oʻtkazish, davlat xaridlarining ochiqlicigi va shaffofligini taʼminlash uchun shaxsiy javobgarlik kuchaytirilishi kabi masalalar belgilangani ham davlat manfaatlariga, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Ushbu hujjatda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Qonunchilik palatasi tomonidan ham milliy qonunchiligimizni JST talablariga moslashtirish ishlarini jadallashtirish talab etiladi. Xususan, “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonunda mahalliy ishlab

2024-yil yakunigacha “E-anticor.uz” elektron platformasida manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq holatlarni aniqlash va onlayn monitoring qilish imkonini beruvchi elektron modul ishga tushiriladi.

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN KO'P QIRRALI ALOQALAR

Qardoshlik rishtalari

Turkiya dunyoning eng yirik turkiy tilli davlati, O'zbekiston xalqiga qardosh, tildosh va dindosh mamlakat. 1991-yilda O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini e'lon qilganda, Turkiya dunyoning qudratli davlatlari og'ziga qarab o'tirmadi. Birinchilardan bo'lib O'zbekistonning mustaqilligini so'zsiz tan oldi va o'zining ittifoqchilarini ham shunday qilishga faol da'vat etdi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan ushbu mamlakatga rasmiy tashrifini ikki do'st mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiy davomi deyish mumkin.

Tashrif doirasida Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishi o'tkazildi. Sammit kun tartibidan O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin oldi. Amaliy hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, “yashil” energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Hech shubhasiz, so'nggi yigirma yilda 85 million nufusga ega Turkiya xalqaro maydonda katta obro'ga ega, salohiyati yuqori mamlakatga aylandi. Davlatning global iqtisodiyot va siyosatdagi o'rni va ta'siri izchil ortib bormoqda. Zamonaviy va qudratli Turkiyaning bugungi barcha yutug'ida va erishayotgan ulkan marralarida mamlakat Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning mislsiz xizmatlari borligini alohida e'tirof etish joiz. Bugun Turkiya dunyodagi eng yirik turkiy tilli



davlat bo'lsa, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining eng ko'p aholiga ega turkiyazon mamlakati sanaladi.

To'g'ri munosabatlarda yuksalish va pasayish davrlari ham bo'ldi. Ammo aynan Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning 2016-yilda Samarqandga tashrifidan keyin ikkala davlat munosabatlaridagi yangi davr boshlandi. Bunda ikkala davlat rahbarlarining 2016 — 2023-yillar ichida turli xalqaro platformalarda norasmiy ravishda yigirmaga yaqin marotaba ko'rishgani ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, 2022-yil hisobidan rasman uch marta uchrashuv o'tkazildi. 29-30-

mart kunlari Toshkentda, 15-16-sentabr kunlari Samarqandda Shanxay hamkorlik tashkilotining sammitida (bu uchrashuvda Turkiya davlati rahbari O'zbekistonning eng yuqori darajadagi ordenlaridan biri bo'lgan Imom Buxoriy ordeni bilan taqdirlandi) va buning ortidan 10 — 12-noyabr kunlari bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar tashkiloti sammitida ikkala davlat rahbarlari o'zaro muloqot qildilar. Ko'rinib turibdiki, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi uchrashuvlar jadvali juda ham tig'iz, qisqa qilib aytganda, ikkala davlat hamkorlik tarixidagi eng mahsuldor yillarni yashamoqda.

O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlarining o'zaro uchrashuvlari umumiy tarix va madaniy merosga ega bo'lgan ikkala mamlakatning ham turk dunyosi bilan munosabatlarini yaxshilash istagida ekanligi hamkorlikni yanada jadallashtiruvchi omil bo'lmoqda. 2016-yilda qayta tiklangan munosabatlar bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Biz e'tibor qilayotgan faol diplomatik bordi-keldining asl sababini esa bu ikki rahbarning davlatlar orasidagi hamkorlikni jadallashtirishga bo'lgan jiddiy istagi, deb ta'riflasak to'g'ri bo'ladi. Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyev faol va har taraflama ochiq tashqi siyosat yuritib kelayotgani muloqot maydonini kengaytirdi.

O'zbekiston rahbarining 2020-yil fevral oyidagi Turkiyaga tashrifi Prezident huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimiga mos ravishda amalga oshirilgani juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu borada Turkiya Prezidenti o'z nutqida alohida to'xtalib o'tganidek: “Ilmlari, ijodlari bilan dunyoga ezigulik ulashgan Imom Buxoriy, Imom Moturiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy kabi buyuklarimiz tuproqlaridan salom

keltirgan bu insonlarning tashrifi biz uchun juda aziz va qadrlidir. O'zbekiston bilan munosabatlarimiz mustahkam qardoshlik rishtalariga tayangan holda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini e'tirof etamiz”. Bu tashrifning yana bir ahamiyatli tomoni shunda ediki, tashrif davomida O'zbekiston — Turkiya Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazildi.

O'zbekiston va Turkiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Islom hamkorlik tashkiloti kabi ittifoqlarda bir-birlarini har doim qo'llab-quvvatlashlarini, mintaqada va dunyoda tinchlik, hamkorlik va rivojlanish tamoyili tomonida bo'lishlari borasida doim hamfikrdirlar. Ikki davlat rahbarlari rivojlanib borayotgan bu hamkorlik natijasi butun turkiy davlatlar dunyosini ham qamrab oladigan darajada yuksalishi zarurligini yaxshi tushunadilar. Bu borada O'zbekistonning 2019-yilda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi (hozirgi Turkiy davlatlar tashkiloti)ga a'zo bo'lib kirishining ahamiyati ham katta bo'ldi. Shu va shunga o'xshash aloqalarda o'zaro birga ish yuritish ikkala davlat uchun juda muhim va ahamiyatlidir. Zero, bunday tashkilotlar faqatgina siyosiy mavzular bilan mashg'ul bo'lib qolmasdan, ko'proq madaniy meros va sheriklik munosabatlariga jiddiy e'tibor qaratayotgani e'tiborga molik.

Ikki davlat rahbarlari uchrashuvlaridagi eng muhim mavzu o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni rivojlantirish bo'lib kelayotgani ham alohida ahamiyatga ega. O'zbek va turk havo kemalarining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona shaharlariga aviaqatnovlari yo'lga qo'yilgani jiddiy natija bo'ldi. Ayni paytda tijorat va bank sohasida ham juda qisqa muddatda yaxshi natijalarga erishilgani ko'rindi. Masalan,

Turk ziraat banki O'zbekistondagi ilk 100 foiz tashqi sarmoyaga ega bo'lgan bank sifatida tarix sahifalariga kirdi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi kundan-kunga ortib bormoqda. Ayni paytda Turkiya O'zbekistonning eng kuchli beshlikka kiruvchi tijorat hamkoridir. 2022-yil Turkiya Prezidentining O'zbekistonga rasmiy tashrifida 5 milliard dollarga yetgan o'zaro tijorat hajmini 10 milliard dollarga yetkazish va Turkiya investorlarining O'zbekistonga sarmoyalari hajmini jiddiy oshirish borasida kelishuvlarga erishildi.

O'tgan yillar mobaynida Toshkentdagi “Eski shahar” turizm hududi, “Tashkent City” hamda Choro'v hududidagi turizm inshootlari loyihasi turk ishblarmonlari bilan aloqalarning amaliy ifodasidir. Bundan tashqari, Samarqandda ham qurilish borasida salmoqli loyihalarga kelishilgan. O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish borasida katta imkoniyatlarga ega. Turkiya esa bu yo'nalishda katta tajribaga ega davlat. Ayni zamonada Turkiya transport, logistika, xizmat ko'rsatish va salomatlik borasida biz havas qiladigan Yevropa standartidan ham yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Aynan shu sohalarida ham hamkorlikni jadallashtirish dolzarb masala. Turkiya bu borada nafaqat O'zbekiston, balki butun turkiy tilli davlatlarga amaliy

yordam ko'rsatishga tayyor bo'lgan mamlakatdir. Qisqasi, bu ikkala qardosh davlatning ham siyosiy, ham iqtisodiy imkoniyatlari nihoyatda katta.

Bugun Turkiya dunyoning iqtisodiy eng rivojlangan yigirmaligiga kiruvchi, qudratli iqtisodiyotchiga ega bo'lgan, qurilish sektori, turizm, og'ir va yengil sanoati o'ta rivojlangan, zamonaviy harbiy texnologiyalar borasida hayratli yutuqlarga erishayotgan davlat hisoblanadi. O'zbekiston esa bu sohalar bo'yicha hamkorlikdan manfaatdor. Odatda, iqtisodiy hamkorlik zamirida ham ma'lum siyosiy maqsadlar yotadi. O'zbekiston kabi turkiy-musulmon davlatlarning rivojlanishi rasmiy Anqara uchun tabiiy ittifoqchilarning qad ko'tarishini anglatadi. Rasmiy Anqara xalqaro maydonda o'zining ishonchli do'stlariga, qardoshlariga ega bo'lishni istaydi. Iqtisodiy va demografik o'sib borayotgan va mintaqa ishlarida jiddiy ambitsiya ko'rsatayotgan rasmiy Anqaraga tashqi bosimlarning o'sib borishi ham tabiiy. Keyingi yillarda Markaziy Osiyo va Kavkazda kuzatilayotgan geosiyosiy vaziyat shuni ko'rsatadiki, rasmiy Anqara mintaqamizdagi turkiy davlatlar siyosiy va geosiyosiy mustaqilligini mustahkamlash, harbiy salohiyatini oshirish yo'lida jiddiy hamkorlik qilish niyatida.

Shuni ham aytilish kerakki, O'zbekistonning a'zolari bilan Turkiy davlatlar tashkilotidagi shu paytgacha mavjud bo'shliq to'dirilib, tashkilotning faoliyati keskin jadallashdi. Barcha a'zolar O'zbekistonning a'zoligini ijobiy baholashdi. O'zbekiston nafaqat qo'shildi yoki a'zo bo'ldi, qolaversa, mana shu tashkilotning faol ishtirokchisi bo'lib, bir qator tashabbuslar bilan ham ishtirok etib kelyapti. Mana shularning hammasini nazarda tutib aytishimiz mumkinki, Turkiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlik borasida oldimizda hali juda katta imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlarining bu galgi uchrashuvi mana shu imkoniyatlarni ishga solishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori,
professor.

Mehnati qadrlangan muallimning o'z kasbiga sadoqati oshadi

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan pedagog kasbining ahamiyati va obro'-e'tiborini oshirish, umumta'lim maktablari o'qituvchilari mehnatini rag'batlantirish hamda ular hayotining moddiy shart-sharoitlarini yaxshilash yuzasidan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Buni yurtimizdagi har bir o'qituvchi dildan his qilib yashayapti, desak, ayni haqiqat.

Fikr

Eng muhimi, bugun pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida. Bu biz, ustozlarga yanada kuch, g'ayrat beradi. Qisqasi, muallimning mehnati, qadri yuksaldi.

Bu haqda gap ketganda, “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonunni chetlab o'tish mumkin emas. Zero, bu hujjat muallimlarga erkinlik berdi, o'z ustida ishlashiga zamin yaratdi.

Shunday paytda beixtiyor yaqin o'tmishimiz ko'z ongimizda gavdalanadi. Sir emas, avvallari o'qituvchilar biror tadbirda “fon”

vazifasini bajarar, o'ziga aloqador bo'lmagan majlislardan ortmasdi. Bu esa ta'lim sifatiga juda katta ta'sir ostida. Bu biz, ustozlarga yanada kuch, g'ayrat beradi. Qisqasi, muallimning mehnati, qadri yuksaldi.

Xalqparvar Yurtboshimiz nafaqat o'qituvchi-o'quvchilarni, balki butun xalqimizni ana shunday eski tizim sarqitlaridan xalos qildi. Bugun ta'limga davlat siyosat darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar mehnati munosib qadrlanib, kasbiga fidoyi, o'z ustida mehnat qilgan o'qituvchilar salmoqli miqdorda maosh olmoqda.

Kasbimizga aloqasi yo'q jamoat ishlaridan xalos bo'ldik. Ortiqcha qog'ozbozlikdan qutuldik.

Asosiysi, bu alohida qonunda o'z aksini topdi.

Yuqoridagi hujjat bilan pedagoglarning huquqlari, kafolatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Xususan, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlandi. Endi o'qituvchidan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shuningdek, bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishni va taqdim etishni talab qilish mumkin emas.

Bizning maktabimiz ham sharoiti jihatdan manaman degan ta'lim

muassasalaridan aslo qolishmaydi. O'quvchilarning esa ilgama chanoq. Bilamizki, bolalar ilk maktabga qadam qo'ygandan, ular bilan fidoyilarcha ishlash, qo'lliga qalam tutqazib chiroyli yozishni, o'qishni o'rgatish hammagayam nasib etavermaydi. Buning o'zi bir baxt. Bizga ana shunday imkoniyat berildiki, buni suiste'mol qilishga aslo haqqimiz yo'q.

Asosiysi, tizimda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar bugun ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Bunday ulkan islohotlar hamma qatori meni ham o'z ustimda ishlash, sidqidildan, fidoyilik bilan mehnat qilishga undamoqda. Bugun o'qituvchilik kasbini tanlaganimdan, yuzlab shogirdlarim borligidan faxrlanaman.

Madina QORABOYEVA,
Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 116-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

YANGI XONADONLAR KALITLARI TOPSHIRILDI

Qarshi shahrida turarjoyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 24 nafar yigit-qizga yangi xonadonlar kaliti topshirildi.

Ijtimoiy himoya

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan ta'kidlanganidek, Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi tegishli qaroriga asosan, Qashqadaryo viloyatida ham yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, shu kunga qadar viloyatda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan uyga muhtoj yuzga yaqin yoshlarning ro'yxati shakllantirilib, belgilangan tartibda uy bilan ta'minlangan edi.

Bu gal esa ularning soni yana 24 nafarga ortdi. Kosonlik Hasan Jomirzayev ham taqdir taqozosi

ila ota-onasidan erta ayrilgan. U singlisi va ukasi bilan birga qarindoshlari qo'lida katta bo'ldi. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida, Hasan va ukalari hayotda o'z o'rnini topib bormoqda.

O'tgan yili Prezidentimiz tomonidan ajratilgan alohida imtiyoz bilan men yurtimizdagi eng nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri — Toshkent davlat yuridik universitetiga, singlim Zuhra esa Qarshi davlat universitetiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindik, — deydi Hasan Jomirzayev. — Stipendiya olamiz, yotoqxonada bepul turamiz. Mana endi menga tumanimizdagi “Yangi O'zbekiston” massivida qurilgan zamonaviy uylardan ikki xonali kvartira berildi. Bunga javoban faqat yaxshi o'qib,



o'z sohamning yetuk mutaxassisi bo'lishga va bizga beqiyos g'amxo'rlik ko'rsatayotgan Prezidentimizning ishonchini oqlashga harakat qilaman.

Jahongir BOYMURODOV
 (“Xalq so'zi”).

O'ZBEKISTON — TURKMANISTON 3:1

2026-yili bo'lib o'tadigan jahon chempionati Osiyo mintaqasi 2-saralash bosqichi to'rtinchi turi doirasidan o'rin olgan O'zbekiston milliy jamoasi va Turkmaniston milliy terma jamoasi uchrashuvi o'tkazildi.

“Bunyodkor” stadionida bo'lib o'tgan o'yinda Husniddin Aliqulov, Oston O'runov va Sherzod Nasrullayev tomonidan kiritilgan gollar vakillarimizning guruh bosqichidagi to'rtinchi g'alabasini ta'minladi. Mehmonlarning yagona goli Shanazar Turkishov nomiga yozildi — 3:1. O'zbekiston terma jamoasi ushbu turdan so'ng to'plagan ochkolari 13 taga yetdi. Gongkongni safarda yenggan (2:4) Eronda ham shuncha ochko bor. Faqatgina to'plar nisbatiga ko'ra forslar “E” guruhi peshqadam bo'lib turibdi.

11-iyun kuni o'tadigan so'nggi turda O'zbekiston Tehronda Eronga qarshi maydonga chiqadi. Ushbu bahs guruh g'olibini aniqlab beradi, xolos. Chunki har ikki jamoa



muddatdan avval 3-saralash bosqichiga yo'l olib bo'lgan.

Fazliddin ABILOV
 (“Xalq so'zi”).

Bolajonlar uchun bu yilgi dam olish mavsumi iyun oyining birinchi o'n kunligidan boshlanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun o'z vaqtida rasmiylashtirilgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir T. Eshboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.25 Topshirildi — 00.30

1 2 3 4 5 6